



“TASDIQLAYMAN”

Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i

Sh. Jamoldinov

Toshkent viloyati statistika boshqarmasida Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha
o‘tkazilgan huquqiy-targ‘ibot yig‘ilish,

BAYONINo 3

2026-yil 13-mart

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: - Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i
Sh. Jamoldinov;

Ma‘ruzachi: : - Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari E. Urunov,
Bosh yuriskonsult **F.Jo‘rayev**;

Qatnashdilar: - Boshqarmaning tarmoq hamda masofadan hududiy
statistika bo‘limlari boshliqlari va mas‘ul xodimlar
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUNTARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 270-sonli Farmoni mazmun-mohiyati to‘g‘risida

(Sh. Jamoldinov, F.Jo‘rayev, Sh. Jamoldinov)

Yig‘ilishni viloyat statistika boshqarma boshlig‘i Sh.Jamoldinov ochib, Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini izchil davom ettirish, mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyasini yanada yaxshilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 30.12.2025 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-son Farmoni qabul qilinganligi haqida qisqacha gapirib so‘z navbatini Bosh yuriskonsult F.Jo‘rayevga berdi.

F.Jo‘rayev, Farmon bilan;

- davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashishning professional va samarali tizimini tashkil etish;

- korrupsiya oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash va preventiv mexanizmlarni joriy etish orqali tizimli korrupsiyaviy holatlarni oldini olish;
- raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellektni joriy qilishni hamda ulardan samarali foydalanishni kengaytirish;
- davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish va muntazam takomillashtirib borish kabi masalalar korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

Shu bilan birga, Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra 20-ta chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan,

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etish;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Hisob palatasi va manfaatdor vazirlik va idoralar- **Korrupsiyani oldini olishning yaxlit tizimini samarali tashkil etish;**

- Adliya vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi- **"E-qaror" tizimida qabul qilinadigan hujjatlarni e'lon qilishda ochiqlikka oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilishni takomillashtirish;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi- **Davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining faoliyatini Agentlik bilan uzviy hamkorlikda tashkil etish choralari ko'rish;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, "UZINFOCOM" MCHJ hamda manfaatdor vazirlik va idoralar- **"Raqamli komplayens" axborot dasturiy kompleksini ishga tushirish;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi- **Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibini takomillashtirish;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi- **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish, shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar haqida xabar berishning ichki kanallarini yuritish tartibini belgilash;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasi, Adliya vazirligi- **Davlat organida mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo'shatilgan xodimni ikki yil ichida o'zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlarga ishga qabul qilishda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasidan xulosa olishning mezonlarini belgilash;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi- **Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish tartibini takomillashtirish;**

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi- **2025 — 2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasi doirasida manzilli choralarni ko'rish;**

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi- **“Korrupsiyaga qarshi kurashishga qo'shgan hissasi uchun” ko'krak nishonini ta'sis etish** kabi va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirilishi bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar ma'sul ijrochilar etib belgilandi.

Yig'ilish yakunida Sh.Jamoldinov so'zga chiqib, Farmon bilan yuklatilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib Agentlikning mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan ma'muriy tartib-taomillarni raqamlashtirish, shu jumladan, davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi avtomatlashtirilgan nazorat tizimini joriy etishga mas'ul bo'lgan “Xavf-tahlil markazi” tashkil etildi hamda Xavf-tahlil markaziga ma'lumotlar bazasidan va axborot tizimlaridan real vaqt rejimida foydalanishga ruxsat berildi.

Shu bilan birga, Farmon bilan Xavf-tahlil markaziga ma'lumotlar bazasidan va axborot tizimlaridan real vaqt rejimida foydalanishga ruxsat berish, shuningdek, Agentlikning elektron so'roviga muvofiq ma'lumotlar taqdim etish choralarni ko'radigan davlat organlari va tashkilotlarining ro'yxati tasdiqlandi.


Targibot yig'ilishi yakunida yig'ilish ishtiroqchilari o'zlarini qiziqtirgan savollariga yetarlicha javoblar olishdilar.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib, yigilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” 270-sonli Farmoni mazmuni va mohiyati bo'yicha o'tkazilgan targibot yig'iishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Ushbu o'quv-seminar yig'ilishi bayoni (bir nusxasi) Qo'mitaning ichki nazorat bo'limiga taqdim etilsin.

Bayonnoma tuzuvchi:

 F. Jo'rayev.